



TIIAME

DO'STLARIM VA QIZIQISHLARIM.  
(UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLAR VA ULARDAGI  
BOG'LOVCHILAR.)



Fan- O'zbek tili

O'qituvchi- Mamarajabova Iroda Fayzullayevna



## REJA:

1. Mening do'stlarim.
2. Uyushiq bo'laklar.
3. Bog'lovchilar



HAQIQIY INSONLAR BIR-BIRLARIGA DO'ST VA YO'L DOSH TUTINGANLAR, DO'STLIK VA HAMJIHATLIK KENG XALQ OMMASINING BUYUK FAZILATI BO'LIB, BUNI ALISHER NAVOIY HAZRATLARI BESH ASR ILGARI DOSTONLARIDA TARANNUM ETGANLAR.



TIIAME



Bu g'oya dunyo xalqlari o'rtasida milliy nizolar ko'paygan hozirgi qiyin  
bir sharoitda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Do'stlarning va  
tengdoshlarning bir-birlariga shirin muomalada, mehr-u muhabbatli  
bo'lishlari do'stlikni mustahkamlaydi.



TIIAME





Bir odamning do'sti go'zal xulqli bo'lsa, u do'stidan ibrat olib, u ham go'zal xulqli bo'lishga kirishadi. Agar do'sti yomon xulqli bo'lsa, shunga qarab yomon xulqli bo'ladi.



TIIAME




## Bilib oling!



TIIAME

Gapda bir xil sintaktik vazifa bajarib, bir xil so‘roqqa javob bo‘luvchi, o‘zaro teng aloqadagi bo‘laklar *uyushiq bo‘laklar* deyiladi. Gapning barcha bo‘laklari uyushib kelishi mumkin. Uyushiq bo‘laklar odatda bir xil so‘z turkumi bilan ifodalanadi.

**Masalan:** Yurtimizning *farovonligi*, *tinchligi* va *iqboli* bizga bog‘liq.  
Bu yerning *ob-havosi*, *iqlimi* va *sharoiti*






# Uyushiq bo‘laklarni bog‘lovchi grammatik vositalarini bilib oling!



TIIAME

Biriktiruv bog‘lovchilar	Zidlov bog‘lovchilar	Ayiruv bo‘g’lovchilar	Yuklamalar
va, ham, hamda, bilan	ammo, lekin, biroq	goh, ...goh, yo...yoki, ba’zan...ba’zan, dam	-u, -yu, -da



## Bilib oling!

Uyushiq bo‘laklar bog‘lovchi so‘zlarsiz, faqat sanash ohangi bilan bog‘langanda, vergul bilan yoziladi.

Masalan: Maktabimiz bog‘iga ***olma, gilos, o‘rik, anjir*** daraxtlarini ekdik. ***Zafar, Hamid, Diyorbek*** qadrdon do‘stlardir.



## 1-topshiriq.

Berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib, do‘stlaringiz va qiziqishlaringiz haqida suhbatlashing.

***Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari:***  
do‘stlarim, do‘stga sadoqat, g‘amxo‘r va samimiyl, puxta bilim olish, qiziqqan sohalarimiz, tanlovda ishtrok etmoq, g‘oliblikka intilish.



**1-mashq.** Gaplarni o‘qing. Uyushib kelgan bo‘laklarni toping. Uyushiq bo‘laklarni bog‘lovchi vositalarni toping.

1. Maktabimizda rassomlik, duradgorlik va tikuvchilik to‘garaklari bor. Biz katta va yorug‘ sinflarda o‘qiyamiz. 3. Nargiza sinfga shoshilib kirdi-yu tezda chiqdi. 4. To‘lqinning, Ozodaning va Shoiranining ukalari bog‘chada tarbiyalanadilar. 5. Mashina sekinladi, lekin to‘xtamadi. 6. Kuzda gohida shamol bo‘ladi, gohida yomg‘ir yog‘adi. 7. Sinf rahbarimiz bizni ba’zida muzeyga, ba’zida teatrga olib boradilar.





## 2-mashq. Matnni o‘qing. Uyushgan va uyushmagan bo‘laklarni aniqlang.



TIIAME

Bog‘da yoqimli shabada esadi. Bulbullarning va sa’valarning sayrashi dilga zavq bag‘ishlaydi. Oq, qizil, sariq, nim pushti gullar chamandek ochilib yotibdi. Nafis gullarning, xushbo‘y rayhonlarning hidi anqiydi. Bog‘ o‘rtasidan o‘tgan ariqdan suv shildirab oqib turibdi. Sevara tiniq zilol suvda yuz-qo‘llarini yuvdi, so‘ngra turli gullardan va rayhonlardan katta guldaста yasadi.





## Uyga vazifa.



TIIAME

Chap ustunda berilgan gaplarning davomini o‘ng ustundan topib yozing.Uyushiq bo‘laklarni aniqlang va bog‘lanishini tushuntiring.

Xushyor, sezgirlikni sira ham	dam jiddiy so‘rardi
Izzat va obro‘li	birga dars qila boshladilar
U dam hazil qilardi,	o‘qidi, yozdi.
Ibrohim bilan Mirzohid tez-tez	kishilar bilan do‘stlash
Sardor mashg‘ulot davomida	qo‘lingdan bermagin



# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!